

**ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN AHMAD IBN YUSUF al-
XORAZMIY**

Ilmiy rahbr: X. U. Samatov.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

AX 23.08-guruh talabasi Mardanov ILYosbek Elmurod o'g'li.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada islom xalifalaridan biri Ibn Yusuf al-Xorazmiyning islom diniga tarqalishi va payg'ambar sunatlarini saqlab qolishidagi hizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: islom, din, xalifa, adolat, erkinlik, hadis, qur'on, ilm, ma'rifat sodiqlik. Mamlakatimizda kamol topgan ulug' muhaddislar, fozilu fuzalolarning nomoni butun dunyoda yaxshi bilishadi. Bobokolonlarimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki ularning boy ma'naviy merosini tadqiq va targ'ib etish burchimizdir. Shu ma'noda prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o'z zamonasidan o'zib ketgan daholar yurti bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qshchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy... nomlarining o'zi bir kitob bo'ladi. Biri kalom ilmi ustoz, biri falak toqiga narvon qo'yan zabardast olim, boshqasi amaliy tibbiyot otasi, biri kalom ilmi durdonasi, yana biri muhaddislar sultoni. Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimizdan biri bu shubhasiz Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hazratlaridir.

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o'z zamonasidan o'zib ketgan daholar yurti bo'lib kelgan. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ahmad Ibn Yusuf al-Xorazmiy Dorimiy... nomlarining o'zi bir kitob bo'ladi. Biri kalom ilmi ustoz, biri falak toqiga narvon qo'yan zabardast olim, boshqasi amaliy tibbiyot otasi, biri kalom ilmi durdonasi, yana biri muhaddislar sultoni.

Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy bu shubhasiz hazratlaridir.



Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy yoshligi Xiva, Zamahshar va Quayt, shaharlarida o`tdi, ta`lim oldi, voyaga etdi. Al-Xorazmiyning undan keyingi hayoti Xuroson bilan bog`liq. U bu yerda vazir Abul-Hasan al-Utrbiy huzurida kotib bo`lib ishladi. Ulug` vatandoshimiz shuhratining eng yuqori darajaga ko`tarilgan davri ayni shu yillarga to`g`ri keladi. Kotiblik vazifasi tufayli u "al-kotib al-Xorazmiy" nomi bilan ham tanildi. O`z hizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turdi va ko`pgina allomalar bilan hamsuhbat bo`ldi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etdi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha etib kelgan yagona ma`lum "Mafotihul -ulum" (ilmlar kalitlari) bo`lib, bu asar o`sha davrning ilm tili - arab tilida bitilgan. "Mafotiyhul-ulum" o`ziga hos qomusiy asar bo`lib, o`z davridagi deyarli hamma asosiy fan sohalari haqidagi ma`lumotlarni o`z ichiga qamrab olgan. Olim ilmlarni ikkitaga bo`lib, ularni "arab-shar`iy" va "arab bo`lmagan" larga ajratadi, yani o`z davrining boshqa namoyondalari singari ilmlar tasnifida ularni ikki qismga bo`lish an`anasiga sodiq qoladi. Shunday qilib, asarda o`n besh ilm haqida to`qson uch bobda ma`lumot berildi. "Mafotihul-ulum" da ilmlar tasnifi har bir fanning pretmetidaniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib borildi.¹

Abu Abdulloh al-Xorazmiy o`z tasnifida o`sha davr an`anasi, yani ilmlarni ikkiga bolishni qo`llab -quvvatlab, shar`iy va falsafiy ilmlarga ajratadi.

An`anaviy arab ilmlari. Shu ilmlardan biri fiqh misolida muallif islom qonunshunosligining asosi bo`lgan Qur`on, payg`ambarning hadislari va uning xillari; ijmon-islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilish, tahorat qilish, namoz o`qish, azon aytish, ro`za tutish, zakot to`lash ustida to`xtalib o`tadi. Kalomga bag`ishlangan ikkinchi bo`limda o`sha davrda Yaqin va O`rta sharqda mavjud bo`lgan ko`pgina mazhablar haqida ma`lumotlar berilgan. Xususan mazhablarning ettiga bo`lib bayon etilishi, ayniqsa mo`taziliylar silotlar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga grekxristian mazhablari, islomgacha bo`lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e`tiqotlar, Hindistonda tarqalgan

¹ <https://uz.wikipedia.org/>



ba'zi dualistik mazhablari va oqimlar hamda zardushtiylik haqida ham so'z boradi. Bu ma'lumotlar yaqin va o'rta sharqda hamda markaziy osiyo xalqlarining dinlari tarixini o'rganishga g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari haqida bo'limida bayon etilgan. Ayni paytda muallif arab she'riyatida va uning tarkibiy qismlarida bo'lgan aruz ustida ham mufassal to'htalib o'tilgan. Asarning tarix bo'limida afsonaviy podshohlardan boshlab tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Ummaviylar va Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda odamlar jamoasining tabaqalarga bo'linishi ham shu bo'limda zikr etiladi.

An'anaviy bo'lmagan "arab bo'lmagan" ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo'lib falsafa qayt etilib unda ushbu ilm atamalarining shahri bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi ham yoritilgan. Arastuning mantiqqa oid kitoblari "SHahri Xorazmiy" asarining mantiq bo'limida o'z aksini topadi.² Unda muallif: Yaqin va O'rta SHarq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma'lumotlar oldinga surilgan ajoyib g'oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitadi.

Kitobning birinchi an'anaviy "arab" ilmlari qismi o'n bir bobdan iborat. Ikkinchi qismiga esa "arab bo'lmagan" ilmlari berilgan. Asarning tabiiy ilmlarga oid bo'limlari o'rta asr SHarqida ilmiy yuksalish darajasini o'rganish nuqtayi nazaridan nihoyatda ma'lumotlarga boydir. Tibga oid bo'limda kasalliklar, soda va murakkab dorilar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu bilimda o'sha davr tabobaatida ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urushiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nodir tavsiyalar berilgan va ularni o'rgangan.

Kimyo bo'limida ham Xorazmiy o'rta asr sharqdagi kimyoviy bilimlar haqida nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni keltiradiki, ular sharqda tabiiy fanlar rivojini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Riyoziyot bo'limida o'rta asr sharqidagi matematik ilmlar holati bayon etiladi. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obektiv olamning ma'lum tomonlari pretmedlari munosabatining iqtisodi deb taqin etilganligi bo'lgan.

² <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>



Muallif Forobiy g`oyaarini davom etgrib, arifmetikani ikkiga: nazariy va amaliyga ajratadi.

U ko`p sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko`rib chiqish orqali nazariy arifmetikaning ba`zi bir tomonlarini boyitgan al-Xorazmiydir.

Xandasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo`linadi bu esa o`sha davrda uning boshqa riyozziyot ilmlari

kabi yuqori darajada rivojlantirganligidan dalolat beradi.³

Xorazmiy o`z tasnifida musiqani riyozziyot ilmlariga qo`shadi va unda musiqaviy asboblar, tovushlarning o`zaro mutonosibli, tarkibi, sozi(lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta`limot ko`rib chiqiladi.⁴

Mehanika bo`limida og`ir yuklarni ko`tarish va dalalarni sug`orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, yani sodda mashinalar ularning tuzilishi va vazifalari ustid to`htab o`tiladi. Xorazmiy dunyoviy ilmlar haqida yozganda ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qilinadi.

Umuman, asarda Abu Abdullox al-Xorazmiy o`z davrida tabiiy va riyozziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy va falsafaga kiritish bilan bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va takidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi intilganligi oz ifodasini topgan. Al-xorazmiyning "Mafotixul-ulum" asari o`rta asr madaniyati va ma`naviyatini o`rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Xorazmiyning "Kitob attarix" (Xorazmiy „Tarix“i) asarida Muhammad (as) hayoti bilan bog`liq sanalar, islom tarixidagi muhorabalar, Quyosh tutilishlari, 713-yil 10-martda Antioxiya shahrida yuz bergan dahshatli zilzila, xalifalikdagi siyosiy hodisalar qayd etilgan. Afsuski, bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bundan ko`rinadiki, Xorazmiyning „Tarix“i uz davrida mashhur bo`lgan va keng tarqalgan. Asar o`sha davrning boshqa tarixchilar yozgan kitoblaridan voqealarni aniq qayd etilishi bilan ajralib turadi.

Xorazmiy fanning beshdan ortiq sohasini fundamental yangiliklari bilan

³ <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-2>

Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.



boyitgani sababli fan tarixidagi ilk qomusiy olim deb sanalishga haqli. Xorazmiy boshlagan bu an`ana keyinchalik ibn Sino, Beruniy, Leonardo da Vinchi, Leybnits, Lomonosov, Franklin kabi olimlar tomonidan davom ettirilgan.

Shuni ta`kidlash joizki, alloma o`zigacha bo`lgan ilmiy bilimlarning asosiy g`oyalari, tamoyili va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o`rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e`tiborni qaratdi. Ya`ni pedagogika nuqtai nazari bilan qaraganda inson ijodiy faoliyatini rivojlantirishga e`tibor berdi. Masalan, "Ziji"ning muqaddimasida u shunday yozadi: "... o`quvchi quyidagini bilishi talab qilinadi: agar u shu (ishga) bu san`at (falakiyot) ni bilmasdan turib kirishsa, u bu chiziqlar haqiqatda aniqlangan (chiziqlar) bo`lmay, balki keyingi davrlardagi hisoblashlar natijasidir, deb noto`g`ri deb o`ylashi mumkin". Zero, hozirgi barkamol avlod yoshlari ham al-Xorazmiy ilm-fanga qo`shgan hissasini anglab yetmog`i, qomusiy olimlar asarlarini o`rganib ularni mohiyatini tushinib yetish kerak.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas`ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.
2. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
3. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
4. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
8. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

⁵ <https://arboblar.com>



9. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>
10. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-2>.
11. <https://uz.wikipedia.org/>
12. <https://arboblal.com>

